7	${}^{87}_{87}\text{Fr}$	${}^{88}_{88}\text{Ra}$					

■ Metallar
■ Yarim metallar
■ Metallmaslar




1. Tabiatshunoslik asoslari

1. Kimyoviy tayanch tushunchalar


1.1. Materiya

Moddalar jonli va jonsiz tabiat uchun asosni hosil qiladi. Ular be-nihoya turli–tuman, ko'p shaklli va murakkabdir. Azaldan ilmfan moddalarni tahlil qilishga, ularning tarkibiy qismlarini aniqlashga, xususiyatlarini topishga va ularning munosabati va reaksiyasi aso-sida yotgan obyektiv qonuniyatlarga asoslanlanligini tadqiq etishga qiziqib kelgan.

Shuning uchun ham moddalar (**materia** lotincha materia =modda demakdir) to'g'risidagi bilimlar ushbu qishloq xo'jaligi ishlab chiqa-rishi kitobidagi barcha keyingi fanga oid nazariy va amaliy ta'lim ma-zvulari uchun kerak bo'ldi.




1-rasm. Materiyaning tuzilishi



2 -rasm. Vodorod eng yengil modda hisoblanad: Bitta elektron bitta protonni ora'b oladi

3-rasm. Kislorod atomining tuzilishi: 8 ta elektron ikkita pog'onada yadroni o'rab oladi



1.2. Atom

Tuzilishi. Atom (grekcha, atomos = bo'linmas (bo'linmaydigan)) kimyoviy asosiy modda yoki elementning eng kichik zarrachasi hiso-blanadi. Uning bo'linishi ilmda isbotlangan.

Atom massali zarrachasi bo'lgan **atom yadrosi** va qobiqdan ibo-rat. Massali zarracha atom hajmining 99% dan ko'prog'ini tashkil etadi. Massali zarrachalarning ba'zilar musbat zaryadli zarracha *pro-tonlar*, va boshqalari esa elektroneytral zarracha *neytronlardir*.

Proton va neytronlar *nukleonlarni* hosil qilishadi. Atom yadrosidagi protonlar soni *atom yadrosi zaryadi* yoki shu elementning *elementlar davriy sistemasidagi tartib raqamiga* teng. Bu har bir elementni far-qlash uchun juda muhimdir.

Elementning atom yadrosidagi protonlar soni bir xil, ammo neytronlar soni turlicha bo'ladi, shu sabab uning massa hajmi bir xil bo'lmaydi. Yadro zaryadlari bir xil, lekin atom massalari turlicha bo'lgan atomlar *izotoplar* deyiladi. Kimyoviy elementlar ko'pincha izotoplar aralashmasi hisoblanadi.

Atom qobig'i juda kichik, manfiy zaryadli *elektronlardan* iborat. Elektronlar atom yadrosi atrofidagi belgilangan yo'lda aylanib hara-katlanishadi. Bu yo'llar bir xil pallada joylashmaganligi uchun ularni pog'onalar deb ham atashadi. Elektroneytral atomdagi protonlar soni elektronlar soniga teng bo'ladi.

Shuning uchun atomning tevaragi (tashqi qismi) elkroneytraldir.

Pog'onalar yadrodan tashqariga qarab raqamlanadi. Bitta pog'onadagi elektronlarning maksimal soni uning pog'ona raqami kvadrati teng. Bitta pog'onadagi elektronlarning eng yuqorisi 32ga teng, tashqi elektron pog'onada 8 dan ortiq elektron bo'lmaydi. Pog'ona o'lchami qanchalik katta bo'lsa, unda joylashgan elektronlar energiyasi ham shunchalik kuchli bo'ladi. Elementlarning kimyoviy xossalari uchun tashqi pog'onada joylashgan elektronlar muhim rol o'ynaydi.

Misol: pog'onadagi elektronlarning maksimal soni n^2 ni tashkil etadi:

$$n = 2 \times k^2$$

1.3. Elementlar

Kimyoviy jihatdan boshqa bir moddaga parchalanmaydigan, ya'ni protonlar soni (*yadro zaryadi soni yoki tartib soni*) bir xil bo'lgan atomlardan iborat moddalar *asosiy moddalar* yoki **elementlar** deb ataladi.


100 dan ortiq elementlar mavjud, ularning uchdan to'rt qismi metallar (masalan, temir, mis, aluminiy), qolganlari metalmaslardir (masalan, kislorod, uglerod, azot).

Holat shakllari—normal holatda (1 bar, 0 °C) ko'pchilik elementlar qattiq, ba'zilar gazsimon (masalan, azot, kislorod) va faqat ikkita element (simob, brom) suyuq shaklda bo'ladi.


Belgilari—kimyoviy tilda elementlar belgilar orqali ifodalanadi, ko'pincha lotincha yoki grekcha nomining bosh harflar bilan belgilanadi.

1-jadval. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish uchun muhim bo'lgan ba'zi bir elementlar (elementlar davriy sistemasida, EDS)


Og'zaki nutq	Terminlar	Belgi	Atom massasi
Aluminiy	Aluminium	Al	27
Bor	Borum	B	11
Xlor	Chlorum	Cl	35,5
Kaliy	Kalium	K	39
Kalsiy	Calcium	Ca	40
Uglerod	Carbonium	C	12
Magnesiya	Magnesium	Mg	24
Mangan	Manganium	Mn	55
Natriy	Natrium	Na	23
Fosfor	Phosphorium	P	31
Kislorod	Oxygenium	O	16
Oltinugurt	Sulfur	S	32
Kremniy	Silicium	Si	28
Azot	Nitrogenium	N	14
Vodorod	Hydrogenium	H	1



4-rasm. Kislorod atomining elementlar davriy sistemasida (EDS) tasvirlanishi



5-rasm. Yer qobig'ining tarkibi



6-rasm. O'simlik tarkibi (Kartoshka misolida)

7-rasm. EDS sidagi metallar, metallmaslar va yarmetallarning ajratilinishi (parcha)

	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII
1	1H							2He
2	3Li	4Be	5B	6C	7N	8O	9F	10Ne
3	11Na	12Mg	13Al	14Si	15P	16S	17Cl	18Ar
4	19K	20Ca	31Ga	32Ge	33As	34Se	35Br	36Kr
5	37Rb	38Sr	49In	50Sn	51Sb	52Te	53I	54Xe
6	55Cs	56Ba	81Tl	82Pb	83Bi	84Po	85At	86Rn
7	87Fr	88Ra						

Metalle
 Halbmetalle
 Nicht-Metalle


Qishloq xo'jaligi texnikasi va texnika xavfsizligi asoslari

2


- | | |
|--|------------|
| 1 Dvigatellar | 54 |
| 2 Traktorlar | 79 |
| 3 Qishloq xo'jaligi transport vositalari yo'l harakatidagi ishtiroki | 123 |
| 4 Qishloq xo'jaligida energiyadan foydalanish | 128 |



Qishloq xo'jaligi korxonasining ko'p mablag' sarflanadigan sohalaridan biri bu – qishloq xo'jaligi texnikasi. Shuning uchun ham texnikani egallash va unga sifatli xizmat ko'rsatish iqtisodiy va ekologik sabablarga ko'ra, ishlab chiqarishning muhim poydevori hisoblanadi. Bundan tashqari, texnika bilan uyda va hovlida, dalada va yo'lda, professional va ishlash qoidasiga ko'ra, to'g'ri, mas'uliyatni his qilgan holda munosabatda bo'lish avariya xavf-xatarini kamaytiradi. Qishloq xo'jaligi texnikasiga kiritilgan mablag' va undan foydalanish korxonada boshqaruvi uchun hamisha muhimdir.




2 Qishloq xo'jaligi texnikasi va texnika xavfsizligi asoslari



110-rasm. Traktorlarning har-xil konstruksiyalari (sxema).

111-rasm. 6 silindrli ichki yonuv dvigateli va chiqindi gaz turbokompressorini:

- 1- turbokompressor,
- 2 - aylanish chastotasi boshqaruvi,
- 3 - yuqori bosim moy nasosi,
- 4 - gidravlik nasosning o'rni,
- 5 - dvigatel moy filtri,
- 6 - shamollatish kanali,
- 7 - sovutish ventilyatori,
- 8 - yonish kamerasi,
- 9 - dvigatelning moy radiatori,
- 10 - aylanma tebranishlar amortizatori



Traktorlar qishloq xo'jaligida ichki va tashqi ishlab chiqarishning tayanch mashinalaridir. Deyarli barcha yuklash va tashish ishlari, shuningdek, yerga ishlov berish, ekish, parvarishlash va hosilni yig'ib olish tadbirlari traktorlar yordamida amalga oshiriladi. Bunda traktorning **dvigatel quvvati, konstruksiyasi va jihozlanishi** uning qo'llanilish va foydalanish sohasini belgilaydi. Tejamkorlik, **texnika xavfsizligi va sog'liqni saqlash** nuqtayi nazaridan, barcha qishloq xo'jaligi mashinalari va qurilmalarida **ishlab chiqarish va harakat xavfsizligiga** katta e'tibor qaratish lozim. Shular qatorida ichki ishlab chiqaruvchi jarayonlar energiyaga ko'proq yoki kamroq bog'liq. Shuning uchun ham ekologik va iqtisodiy mulohazalar hamda texnika xavfsizligi sabablariga ko'ra, **mavjud energiya zaxiralari**dan va **muqobil energiyadan** mas'uliyatni his qilgan holda foydalanish lozim. Mazkur bobda qishloq xo'jaligi texnikasi asoslarining aynan shu jihatlariga to'xtaliniyadi.

1. Dvigatellar

1.1. Ichki yonuv dvigatelining funksiyalari

Ichki yonuv dvigatellari yoqilg'ining kimyoviy quvvatini issiqlik quvvati orqali mexanik quvvatga aylantiradi. Shuning uchun ham uzoq masofaga harakatlanishda va elektrodvigatel uzatmasi qiyin amalga oshganda, bu dvigatellar mobil transport vositalarining quvvat manbayi sifatida xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, yo'l transport vositalari va mobil ishchi mashinalarga xosdir. Ma'lumki, ichki yonuv dvigatellarning foydali ish koeffitsiyenti elektrodvigatellarnikiga qaraganda kamroqdir.

1.1.1. Ichki yonuv dvigatelining ishlash prinsipi


Barcha ichki yonuv dvigatellarida yoqilg'i va havo aralashmasi ma'lum xonalarda yonadi. Bunda gaz aralashmasi kengayadi va dvigatelning konstruksiyasiga qarab, trubina g'ildiragi, rotor yoki porshenni harakatlantiradi. **Porshenli ichki yonuv dvigatellarida** porshen harakati tirsakli val yordamida aylanma harakatga aylantiriladi. Qishloq xo'jaligi traktorlari va ish mashinalariga deyarli istisno-siz porshenli ichki yonuv dvigatellari o'rnatiladi. Ixtirochisining nomi qo'yilgan **rotor-porshenli Wankel dvigateli** muvaffaqiyat qozonmadi. **Gaz trubinasi** katta ishlab chiqarish xarajatlariga, yuqori quvvat va xususiyatga ega bo'lib, u qishloq xo'jaligida foydalanishga to'g'ri kelmaydi.

1.1.2. Porshenli dvigatellarning tuzilish shakllari

Traktorlar va o'ziyurar ishchi mashinalarining konstruksiyasiga ko'ra, motorlarning turli xillaridan shakllaridan foydalaniladi. Ularni tanlashda o'rnatish joyining imkoniyati va texnik xizmat ko'rsatish hamda ta'mirlashning mavjudligi katta ahamiyatga ega.

Ko'pchilik traktorlarga silindrlari vertikal joylashgan **qatorli dvigatellar** o'rnatiladi. Agregatsiz traktorlarga qatorli dvigatellar yotiq yoki qiya tarzda o'rnatiladi. Quvvat darajasiga qarab, ular 3 – 6 silindrlilik jihozlanadi.

6,8 yoki 10 silindrli "V"simon dvigatellar yaxlit qurilish shakliga ko'ra, asosan, o'ziyurar mashinalarga yoki yuqori quvvat ehtiyojiga ega statsionar mashinalarga o'rnatiladi.



112-rasm. Rotor-porshenli dvigatel (Vankel dvigateli).

1.1.3. Porshenli ichki yonuv dvigatelining qismlari


Barcha dvigatellar kabi, porshenli dvigatel ham qo'zg'almas (tayanch) va harakatlanuvchi qismlarga ega.

Qo'zg'almas qismlarga quyidagilar kiradi:

- ▶ gilzali silindrlar bloki;
- ▶ karter bloki;
- ▶ karter blokiga mahkamlangan moy vannasi;
- ▶ silindrlar kallagi.

Harakatlanuvchi qismlar – bu:

- ▶ porshen;
- ▶ porshen halqalari (kompression, moy sidiruvchi);
- ▶ shatun - bir tarafdin porshen barmog'iga va boshqa tarafdin tirsakli valga o'rnatiladi, u porshen kuchini tirsakli valga o'tkazadi
- ▶ tirsakli val- porshen orqali shatundan kelayotgan kuchni qabul qilishi bilan o'zida vujudga kelgan buruvchi momentni avtomobil transmssiyasiga uzatadi
- ▶ maxovik muvozanatga keltiruvchi massa sifatida porshen harakatidagi tugash nuqtasining harakatlanishini ta'minlaydi;
- ▶ kiritish klapani, chiqarish klapani, tebratuvchi dastak, shuningdek klapan prujinasi, bamper va quloqli valdan tashkil topgan to'rt taktli dvigatelga o'rnatiluvchi klapanlar va gaz taqsimlovchi mexanizm. Klapanlar klapan prujinasi bilan berkitilgan va quloqli-taqsimlovchi val orqali ochiladi. Taqsimlovchi valning harakati tishli g'ildiraklar, zanjirlar yoki tishli tasma yordamida tirsakli val orqali amalga oshadi. Ayniqsa, tez harakatlanadigan dvigatellarda quloqli valning harakatlanishi uchun tishli tasma qo'llaniladi. U juda silliq harakatlanadi, ammo belgilangan vaqt oralig'ida yangilab turilishi shart.



113-rasm. Krivoship shatunli mexanizm qismlari.

114-rasm. Porshenli dvigatelning to'la kesimi.



Vazifalar:






1. Nima uchun traktorlarda, ko'pincha, qatorli dvigatellar o'rnatiladi?
2. Qaysi qismlar dvigatelning krivoship shatunli mexanizmiga tegishli?
3. Klapanli gaz taqsimlash mexanizmi qanday qismlardan tashkil topadi?

O`simlikshunoslik asoslari

4










- 1 O`simliklar anatomiyasi, ularning o`shishi va rivojlanishi **254**
- 2 O`simliklarda modda almashuvi jarayoni **270**
- 3 O`g`itlash asoslari **275**
- 4 O`g`itlash mashinalari va uskunalari **312**
- 5 O`simliklarni himoya qilish **327**
- 6 Madaniy va foydali o`simliklarni yetishtirish va ko`paytirish **344**
- 7 Dala ekinlari hosildorligi **355**
- 8 O`simliklarni himoya qilishda va parvarishlashda ishlatiladigan mashinalar va uskunalar **360**



Intensiv dehqonchilikda iqtisodiy tamoyillar ekologik qonuniyatlar bilan mos kelishi lozim. Bunga esa ildizlari "tabiat g'aroyibotlariga" borib taqaladigan o`simlik mahsulotlari asoslaridan olingan fundamental bilimlar zamin yaratadi.


Har bir qishloq xo`jalik ishlab chiqarish jarayoniga mas`uliyat bilan yondashib, ko`zlangan ishlar va bundan kelib chiqadigan natijalarni e`tiborga oladi, chunki ekologiya uzoq muddatli va barqaror iqtisodni anglatadi.

4 O'simlikshunoslik asoslari

Bakteriyalar	 <p>tayoqsimon sharsimon vibriyon spiralsimon</p> <p>Bakteriyalar shakli • Ichak bakteriyalari</p>	Xajim o'lchovi (nm)	3
Bir xujayralilar	 <p>Xlamidomonas</p> <p>tufelka</p>		20 300
Odam - hayvon	 <p>Odam urug'i hujayrasi</p> <p>Bosh kengligi umumiy uzunligi</p>		5 50
	 <p>Odam tuxum hujayrasi</p>		100
	 <p>Qizil qon tanachasi</p>		8
	 <p>Og'iz shilliq pardasi hujayralari</p>		70
	 <p>Hujayra tanasi</p> <p>Nerv tolalari (nevidlar)</p> <p>Nerv hujayralari</p>		7-100 1 metr gacha
O'simliklar	 <p>Barg tukchasi hujayrasi (uzunligi)</p>		250
	 <p>Piyoz epidermisi hujayrasi (uzunligi)</p>		400

642-rasm. Hujayralarning hajmi va shakli taqqoslangan odamning soch tolasi diametri 0,1 mm (mm=milliordan 1).

643-rasm. Chapda: hayvon hujayrasining; o'ngda: o'simlik hujayrasining sxemasi.



1. O'simliklar anatomiyasi, ularning o'sishi va rivojlanishi

Insoniyat tarixida dehqonchilik ekin ekish bilan boshlangan. Bugungi kunda xo'jaliklarning iqtisodiy asosini o'simlik mahsulotlarini sotish va yem-xashak tayyorlash tashkil qiladi. Ushbu bo'lim iqtisodiy ishlab chiqarish texnikasi, o'simlikning tuzilishi va hayotiy funksiyalari haqida ma'lumot beradi.

1.1. Hujayralar

Hamma tirik organizmlar kichkina tirik poydevorlardan, yani hujayralardan iborat bo'ladi.

O'lchami – o'simlik hujayralari 10 va 100 nm (mikrometr, nanometr), hayvonlar hujayralari 10 va 30 nm kattalikda bo'lib, ularni faqat mikroskop orqali ko'rish mumkin. Hujayralar o'lchami jihatidan bir- biridan farq qiladilar. Eng kichik hujayralar gul changi va bakteriyalar, eng yirigi esa qush tuxumlari hisoblanadi.

Shakli – xuddi o'lchamlariga o'xshab, hujayralarning shakllari ham turli xil bo'ladi. Yangi hosil bo'lgan hujayralar shaklan yumaloq bo'ladi, tabaqalanib, to'liq shakllangandan keyin esa hujayralar o'z vazifalariga kirishadilar. 642-rasmda bir nechta misollar keltirilgan.

Hujayira tarkibi va vazifalari – hujayira qobig'i sitoplazmani himoyalaydi, hujayirani chegaralaydi va mustahkamlaydi; yosh hujayralarda u, asosan, sellyulozadan iborat bo'ladi, o'zidan gazlar va suvli eritmalarini o'tkazib turadi (0,01 – 0,0001 mn).

Hayvon hujayralarida hujayira devori bo'lmaydi.

Hujayiralar hujayira membranasi orqali plazmodesmalar yordamida bir-biri bilan bog'lanadilar.

Qarib borayotgan hujayiralar mag'zi yiriklashadi. Lignin moddasi hujayira devorida to'planishi, ularning nobud bo'lishiga olib keladi. Yog' moddalari esa ularni germetik holatga keltiradi. Shunga qaramasdan, hujayiralar **orasida** modda almashinuvi kechishi jarayonida yiriklashgan hujayira mag'zida bir necha ochiq qismlar qoladi. U yerda naychasimon tuzilmalar paydo bo'lib, mayda zarralar plazma bo'ylab harakatlanib turadi.

Minerallarning to'planishi hujayira devorini qotiradi, ayniqsa bunday holat sho'rga chidamli o'simliklarda namoyon bo'ladi.

Sitoplazma elektron mikroskopda shaffof, rangsiz, harakatchan suyuqlik shaklida ko'rinadi.

U, asosan, suv va oqsildan iborat bo'ladi, unda moddalar almashinuvi sodir bo'ladi. Dastlabki bosqichda sitoplazma butun hujayirani to'ldirib turadi. Hujayiraning o'sish jarayonida hujayira shirasi bilan to'lgan bo'shliqlar—vakuolalar hosil bo'ladi. Ular yirik hujayiralarda bir joyga to'planadilar.

Sitoplazma protoplast orqali tashqaridan plazmolemma bilan, ichkaridan esa vakuolaga tonoplast orqali chegaralanib turadi.

Yosh hujayiralarning o'rtasida, qari hujayiralarning, asosan, devor tomonida yumaloq yoki linza shaklidagi yadro joylashadi. Yadroni yarim suyuq modda bilan to'lgan ikki membrana o'rab turadi. Hujayira yadrosi yadro plazmasidan iborat bo'ladi. U mikroskopda xuddi to'r pardaga o'xshab ko'rinadi. Ko'pincha, bir yoki bir necha yadrochalar bo'ladi. Hujayira yadrosi tirik organizmning irsiy axborotini saqlaydi, modda almashinuvi, o'sish va rivojlanishning davomiyligini boshqaradi.

Elektron mikroskop orqali sitoaplazmadagi turli xil membrana bilan chegaralangan strukturalar, hujayira organoidlarini ko'rish mumkin, ular ma'lum bir vazifani bajaradilar.

► **Mitoxondriyalar**—ular sitoplazmadagi mayda tanachalar. Ular burmali, naysimon shakllarda bo'ladi, ularning membranasi sitoplazmaga qarab yo'naladi. Ular hujayiraning "quvvat manbaidir". Ularda hujayiraning nafas olish jarayoni kechadi, ya'ni adenozintrifosfat kislotasi (ATF) sintezlanadi, glukozani oksidlash orqali ATF shaklida modda almashinuv jarayoni uchun energiya ishlab chiqiladi.


► **Plastidalar**—ularga xloroplastlar, leykoplastlar va xromoplastlar kiradi. Xloroplastlar barg rangini yashil ranga bo'yaydi (xlorofill). Ular quyosh energiyasini kimyoviy energiyaga aylantiradi. Rangsiz - leykoplastlar zaxiradagi quvvat sifatida qatnashadilar. Xromoplastlarda esa qizil yoki sariq rangli pigmentlar bo'ladi (masalan, qizil lavlagi, pomidor).


► **Ribosomalar**—ular RNK va oqsildan tashkil topadi. Ularda aminokislotalardan oqsil hosil qilish jarayoni kechadi. Ular sitoplazmada erkin joylashadilar yoki kichkina sharlar shaklida endoplazmatik to'rga yopishadilar.

Endoplazmatik tor— u juda ko'p mayda kanalchalar va bo'shliqlarning to'rsimon sistemasi shaklida butun sitoplazma bo'ylab o'rnashadi va modda tashishga xizmat qiladi.

► **Diktasomalar** — ular membranalar bilan chegaralangan va to'p-to'p bo'lib joylashgan bo'shliqlari ohiri yopishgan pufakchalardan iborat. Diktasomalar membranalarida hujayirada sarflanadigan pal-

644-rasm. Piyozi qobig'ini hujayiralarini kuzatish.





645-rasm. O'simlik va hayvon hujayralaridagi farqni ko'rsatuvchi misollar

isaharidlar va proteinlar sintezlanadi. Hujayradagi diktasomalari yig'indisi gol'ji apparati deyiladi.

► **Lizasomalari** – ular tarkibida moddalarning parchalanuvchi fermentlarga ega bo'lgan mayda–mayda yumaloq tanachalar bor. Lizasoma hujayra ichidagi hazm bo'lish jarayonini amalga oshiradi, masalan, bahorda o'simliklarning unib chiqishi misol bo'la oladi.

1.2. Hujayra bo'linishi

Hujayra o'sadi, undagi plazma yiriklashadi yoki hujayra ichida suv ko'payadi, masalan, bahorda o'simliklarning unishida. Bu o'sish ichki malum bir chegarali spetsifik genetik dastur asosida kechadi.

Barcha hujayralar hujayra bo'linishidan paydo bo'ladi

Hujayra bo'linishi tirik organizmlarda hayotning asosiy jarayoni sifatida hujayra yadrosi bilan birga kechadi.

Mitoz (yadro bo'linishi) uzluksiz kechadigan jarayon bo'lib, u 4 fazaga bo'linadi:


1. Profaza. Yadro qobig'ini tashkil qiluvchi membranalar parchalanib, xromosomalar hosil bo'ladi. Bir-biri oralig'ida yurgan markaziy tanachalar yadro duglarini hosil qila boshlaydi.

2. Metafaza: Yadro bog'lari qisqaradi, xromosomalar hujayra o'rtasiga joylashadilar. Bir vaqtning o'zida yadro dugining uzinasiga bo'linishi boshlanadi.

3. Anafaza. Xromatidlar to'la shakillanib bo'ladi. Har bir xromosoma bitta dug ipiga o'z sentromerasi orqali birikadi; ularning uzunasiga bo'linishi sodir bo'ladi va qiz xromatidlar hujayraning ikki qutbiga yo'naladilar.

4. Telofaza. Ikkita aniq ko'rinib turgan hujayra yadrolari (qiz yadrolar) paydo bo'ladi. Yana yangi yadro pardasi yuzaga keladi, yadro (shpindel) dugi yo'qoladi. Hujayra membranasi asliga qaytadi. Hayvon hujayralaridan tashqaridan ichkariga qarab belbog' (bog'ich) hosil qiladi. Hosil bo'lgan 2 ta qiz hujayralar keyingi jarayonda uzoqlashadilar va endi to'la-to'kis alohida bo'lib shakllanadilar. Sitoplazmaning belbog' hosil qilib bo'linishi sababi xromosomalar taqsimining ular bilan dastlabki hujayra soniga mos kelishidir. Ular teng (ya'ni qiz hujayralardagi xromosomalar soni ona hujayralardagi xromosomalar soniga teng bo'ladi).

Yadrosiz hujayralarda, xuddi bir hujayrali bakteriyalardagi kabi, jarayonlar ancha oddiy kechadi. Bunda hujayra tanasi ko'ndalang shaklda bo'linadi, "ikki pallali o'simlik", shundan kelib chiqqan. "O'simlikshunoslik va charvochilik asoslari bo'limida" jinsiy hujayralarning rivojlanishi haqida so'z boradi.



bosh qobiq, tojbarlardan chiqqan ikkita ladikula (gul kosa pardasi), 3 ta changdon va ikkita par shaklidagi og'izchali mevacha bargdan iborat.

Ladikulalar gullashdan oldin suvni shimadilar, ko'pchib kengayadilar va qobiqlarni bir-biridan ayiradilar. Pat shaklidagi og'izchalar changlarni tutadilar.

Bug'doy boshloqlari egri-bugri shaklidagi shpindelga o'rnashadi. Har bir boshloqda 4–6 tadan gul bor. Ulardan 2 yoki 3 tasigina mevali bo'ladi.










Gulkosa (gul po'sti) uchiga qarab tishdan uzun qiltiq chiqib turadi. Boshloqni ikkita boshloq qobiqlari o'rab turadi.

Gullar ertalab faqat bir minutgina ochiladilar. +13°C gan past haroratda ular yopiladilar. Og'izchalar o'z gullaridan changlanadilar (o'z-o'zini changlatish). Faqat boshloqlari ikki guldin iborat bo'lgan **javdar** o'z-o'zini changlatish hosil kamayishiga olib kelishi ko'rsatilgan

Arpa boshloqlari har qaysi alohida bir o'qda emas, balki hammasi birlashib, bir o'qda o'rnashadilar. Har bir boshloqchada bittadan gul bo'ladi. Olti qatorli arpada uchta boshloq bir xilda hosil bo'ladi, ularda oltita gul bo'ladi, keyinchalik ular olti don qatorini hosil qiladilar. Ikki qatorli arpa faqat o'rtadagi boshloqchada hosil bo'ladi. Qobiqlarida uzun qiltiq bo'ladi.


Sulining boshloqchalarida ikki, ba'zan uch guli bo'ladi. Boshloq shoxchalari xuddi ipdek osilib turadi. Ularning oxirida kichkina, puch (bo'sh) qobiq bo'ladi. Boshloq qobig'i gul qobiqdan uzunroq bo'ladi. U butun boshloqni o'rab turadi. Pastki gul qobig'i to'g'ri yoki egilgan qiltiqqa borib taqaladi.

Bir uyli o'simlik bo'lgan **makkajo'xorining** popugida erkak jinsli gullar poya uchida joylashgan bo'ladi va ayol jinslilari barg qo'ltig'ida qat-qat yaproqlarga o'ralgan so'ta hosil qiladilar. Erkak boshloqchalar ikkita boshloq qobig'idan, ya'ni bitta gul qobiqli va yuqori gul qobiqli erkak gullardan, ladikulalardan va changlovchi barglardan iborat bo'ladi.

























Popukilar	Soyabongullilar	Yarim soyabonlilar
Asosiy o'q, yon o'qlardan kuchliroq va uzunroq bo'ladi	Hamma gullarning gulbandlari asosiy o'qning bir nuqtasidan chiqadi va bir xil uzunlikda bo'ladi	Asosiy o'qda bitta gul bo'ladi, uning tagidan yon gul shoxalari o'sib oxirida bittadan gul bo'ladi
 boshloq so'ta	 soyavon	 yarim soyavon
 popuk	 murakkab soyavon	 yelpig'ich
 ro'vak	 savat	 o'ram

661-rasm. To'p gullar turlari.

662-rasm. Asosiy don turlarining to'pgullari va gullari.



50-jadval. Don turlarining va makkajo'xoring farq qiluvchi belgilari.

Don turi	Bug'doy	Arpa	Javdar	Suli	Makkajo'xori
Botanik nomlanishi	<i>Triticum aestivum</i>	<i>Hordeum vulgare</i>	<i>Secale cereale</i>	<i>Avena sativum</i>	<i>Zea mais</i>
To'pgul	 Boshqoq 663-rasm	 Boshqoq 664-rasm	 Boshqoq 665-rasm	 666-rasm	 So'ta 667-rasm
Boshqoq shakli	 5 gul bargli bug'doy doni boshqo'gi 668-rasm	 ikki qatorli arpaning boshqoqchasi 669-rasm	 boshqoq o'qi 670-rasm	 donning po'sti 671-rasm	  larga o'ralgan va tum shuqchalari ipli so'ta, barg qo'ltig'ida joylashadi 672-rasm
Barg quloqchasi	 O'rtach uzunlik tukli 673-rasm	 juda katta (poyali) bandli 674-rasm	 aniq ko'rinishda 675-rasm	 quloqchasi yo'q 676-rasm	
Ligula	 uzun 677-rasm	 qisqa (kalta) 678-rasm	 qisqa 679-rasm	 uzun, popukli 680-rasm	
Kurtak shakllari	 681-rasm	 682-rasm	 683-rasm	 684-rasm	 685-rasm
Donning absalyut og'irligi (ming dona don og'irligi: gramm-da) (TKG)	Kuzgi-bahorgi bug'doy 41-52 38-49	Kuzgi-bahorgi arpa ko'p qatorli 37-47 ikki qatorli 42-53 38-48	Kuzgi javdar 31-39	29-37	150-400

Onalik jinsli boshqochalar soʻta yuzasida juda zich joylashadilar. Ikki tomonlama bosim uni katak shakliga olib keladi.

Bugʻdoy, arpa va suli oʻz-oʻzini urugʻlantiruvchilardir, makkajoʻxori va javdar (allogomik) chetdan urugʻlanuvchilardir, ular shamol yordamida changlanadilar.


1.5. Foydali oʻsimliklarning oʻsish va rivojlanish bosqichlari

Oʻsimlik oʻsish va rivojlanish jarayonida oʻzgarib boradi. "Oʻsish" – bu oʻsimlik hajmining "ortishi", "rivojlanish" – esa undagi shakl va sifat oʻzgarishidir. Hamma tirik organizmlar barcha rivojlanish bosqichlaridan toki oʻlguncha hujayralarning koʻpayishi hisobiga oʻsadi.

1.5.1. Rivojlanish davrlari

Vegetativ va generativ davrlar – oʻsimlikning vegetativ rivojlanishi gul hosil qilguncha davom etadi, soʻngra generativ davr boshlanadi. Baʼzi bir foydali oʻsimliklar bu davrni ikkinchi yoshda egallaydi.

Kodlar – ishlab chiqarish texnikaviy tadbirlari oʻsimliklarning bir-biridan chegaralangan va aniq tasvirlangan rivojlanish bosqichlarini koʻrsatib beradi. Qishloq xoʻjaligi va oʻrmon xoʻjaligi Biologik Federal boshqarmasi (BBA) 00 – 99 gacha boʻlgan sonlarni kod shaklida belgilaydi. BBSH–kodi (B– Biologik Federal boshqarma, B=Federal nav turlari Boshqarmasi, SH–Kimyo sanoati) bu madaniy oʻsimliklarning oʻsish fazasini ikki sonli raqamda ifodalaydi (265-betda). 687-rasm don ekinlarining kodini koʻrsatadi va 51-jadval uni tasniflaydi.



- 00–09 – murtaklash
- 10–19 – barg rivojlanishi
- 30–39– boʻyiga oʻsishi
- 51–59 – gul kosalari, popuklarning paydoo boʻlishi
- 61–69 – gullash
- 71–79 – meva xohosil qilish
- 81–89 – meva va urugʻ pishishi (yetilishi)

686- rasm. Makkajoʻxoringning tanlab olingan rivojlanish bosqichlari.

887-rasm. BBSH – kodi boʻyicha donning rivojlanish bosqichlari (sxema, makkasiz).

